

CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING XORIJDAGI YUTUQ VA MUAMMOLARI.

Muallif: G'ulomjonova Mojizabonu Otabek qizi

Ilmiy rahbar: Talibjanova Aziza Lutfullayevna

O'zDJTU Ingliz tili №3 fakulteti, 1 -bosqich, 2103-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida masofaviy ta'limning xorij mamlakatlaridagi yutuqlari va yuzaga kelayotgan muammolar haqida fikr yuritamiz. Nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda vujudga kelgan pandemiya sharoitida ta'limning yo'nalishlari masofaviy tizimga yo'naltirildi va bu o'z navbatida bir qancha qulayliklarni yuzaga keltirdi. Axborot texnologiyalari soniya sayin rivojlanib, taraqqiy etayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, undan faqatgina ko'ngilochar mashg'ulotlar uchun foydalanish jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmaydi.

Xalqimizda mavjud “ Til bilmoq- el bilmoq” naqliga amal qilgan holda zamon talabiga aylanib borayotgan xorijiy tillarni o'rganish bugungi kunda yoshlarning maqsad va vazifasiga aylanib ulgurgan. Shubhasiz, til insonlarning jamiyatda muamola va munosabatiga xizmat qilish bilan birga, uni tashqi olam bilan ham chambarchas bog'laydi. Hayotimizning barcha jabhalarida tilning, ayniqsa xorijiy tillarning o'rni beqiyos. Bugungi kunda ommalashib, ko'plab so'zlashuvchilarga ega bo'lib ulgurgan xorijiy tillardan biri bu ingliz tilidir. Nafaqat oliy ta'lim sohasida, balki maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida bu tilni yoshlarga chuqur va bosqichma-bosqich o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Chet tillarini bilish yoshlarga istiqbol eshiklarini ochadi va ularni o'tkir salohiyatli, teran fikrlaydigan, olamga o'z dunyoqarashi bilan boqadigan tom ma'noda yetuk qilib tarbiyalaydi. Chet tillarini mukammal bilgan inson dunyoning istalgan burchagida kerakli shaxsga aylana olishi sir emas.

Onlayn ta'limning yutuqlari: Texnologiya asrida yashayotganimizni inobatga olgan holda mana shu jarayonni online ta'lim bilan uyg'unlashtirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, o'tgan bir necha yillar mobaynida Covid-19 virusi sababli mamlakatning barcha sohalarida ma'lum uzilishlar, inqirozlar yuzaga keldi. Shu bilan bir qatorda yer yuzining barcha nuqtalarida ta'lim tizimining online shaklga o'tishi kuzatildi. Pandemiya sharoiti bo'lishiga qaramasdan talaba va yoshlarning vaqtlarini mazmunli va unumli o'tishi, ta'lim jarayonlarining sifatli va uzliksiz davom etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Onlayn ta'limning mavjud eng kata qulayliklaridan biri shuki, yoshlar istalgan vaqtda o'zlariga kerakli bilimlarni bevosita o'zlashtira olishidir. Qolgan bo'sh vaqtlarida esa talabalar egallagan bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etishi va samarali ish bilan band bo'lishlari mumkin. Hozirgi zamonga xos va mos tarzda yoshlar innovatsion texnologiyalar bilan hamnafas ta'lim olishni afzal ko'rishmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pandemiya vaqtida barcha ta'lim shakllari onlayn tizimga o'tkazildi. Talabalar esa masofaviy ta'limda ham o'z bilim va iqtidorlarini yetarlicha namoyon eta olishdi. Bu esa o'z navbatida ularga bir vaqtning o'zida nafaqat o'z sohalarida, balki boshqa sohalarda ham qimmatli bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini yaratdi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar bo'yicha boy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis va o'qituvchilar talabalarga metodik yordam ko'rsatishdi. Onlayn darslar an'anaviy tizim kabi guruh bo'lib o'qitiladi va bu talabalarga o'z fikr va mulohazalarini bo'lishish va boyitishga ko'maklashadi. Har sohada yangilik yaratishga intiluvchi yoshlar online ta'limda ham o'zlari uchun kerakli eshiklarni ocha bilishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Onlayn ta'lim faqatgina oliy ta'lim tizimida emas, balki oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichda ham muhim ro'l o'ynaydi. Ya'ni oliy ta'limda o'qish ishtiyoqida bo'lgan barcha abiturentlarda ham iqtisodiy imkoniyat mavjud emas. Shu sababli onlayn ta'lim ular uchun bu kabi muammolarni bartaraf etadi va endi ular ham masofadan turib ta'lim olishlari mumkin bo'ladi. Har qanday holatda ham yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay imkoniyatlar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Onlayn ta'limdagi muammolar: Har bir sohaga ikki taraflama qaraganimizdek, o'zida juda ko'plab afzalliklarni mujassam etgan masofaviy ta'lim ham ba'zi kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Hammamizga ma'lumki, internet aloqasi barcha hududlarda ham birdek samarali xizmat ko'rs atmaydi, shunday ekan undan istalgan paytimizda foydalana olmaymiz. Internet aloqasi yaxshi bo'lsagina biz sifatli ta'limga ega bo'lishimiz, masofaviy tizimda ham samarali natijalarga erishishimiz mumkin. Mavjud masalaga boshqa tarafdin yondashadigan bo'ls ak, onlayn ta'lim talabalardagi o'zaro yuzma-yuz aloqa qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shubhasiz, an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar bir-birlari bilan erkin aloqa qilish, mavzu yuzasidan o'zaro bahs va munozaralar olib borish va, albatta, fikr-mulohazalarini bo'lishish va boyitish imkoniyatiga egalar. Onlayn ta'limda esa ular bu kabi imkoniyatdan foydalana olishmaydi va natijada ular atrofdagilar bilan muomalaga kirishishda yaxshi natija ko'rsata olishmaydi. Har sohaga qiziquvchan yoshlar masofaviy tizimda ham zamon talabi darajasida sifatli ta'lim olishlari shubhasiz, ammo kun davomida faqat ekranga qarab o'tirish ularni har taraflama toliqtirishi va zeriktirishi turgan gap. Haqiqiy hayot misolida ko'radigan bo'lsak, kun davomida faqat bir turdagi mashg'ulotlar bilan mashg'ul bo'la olmaysiz, bu sizdagi yaratuvchanlik va qiziquvchanlik qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday paytda inson faqat o'z qobig'i doirasida fikrlashga odatlanadi, o'zi uchun noma'lum bo'lgan narsalarni kashf etishga ishtiyoqi bo'lmaydi va unda ichki qo'rquv vujudga kelishi mumkin. Jonli insonlar bilan muloqot qilishga, atrof- muhitning bir qismiga aylanishga hech qanday texnologiya tenglasha olmaydi. Inson tabiati azaldan yangilikka intiluvchan bo'lgani sababli doimiy bir xillikda bo'lish ular uchun zerikarli mashg'ulotdek tuyiladi. Shunday sababli an'anaviy ta'lim uzoq muddatda

ham birdek samaradorlikka ega bo'lgani uchun masofaviy ta'limga nisbatan qulay va ta'sirli sanaladi. Lekin yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlarimiz masofaviy ta'limning afzallik va yutuqlarini rad eta olmaydi. Ta'lim qay shaklda olib borilmasin, talabalarda eng avvalo layoqat va shijoat bo'lmog'i darkor. Ana shundagina ular ko'zlagan maqsadiga yetishi va jamiyatga kerakli, fidoyi shaxs sifatida tanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://algorithm-centr.ru/uz/historians/sovremennye-metody-prepodavaniya-inostrannyh-yazykov-sovremennye.html>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-onlayn-ta-limning-yutuq-va-muammolari>
3. <https://arxiv.uz/ru/documents/diplom-ishlar/ingliz-tili/chet-tillarini-masofaviy-o-qitishda-interfaollik-muammosi>
4. Paluanova, X. "Ingliz, o 'zbekvaq oraqalpoqtillarid aekologikterminlam ingderivatsion-semantikprinsiplari. Dokt. diss. avtoref." (2016).
5. Палуанова, Халифа Дарибаевна. "Изучение экологических единиц в английском языке." (2016): 72-72.